

Mahammadiyeva Muxlisa

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Filologiya fakulteti Adabiyotshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida badiiy ijod masalalari tahlil etiladi. Asarda muallifning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish uslubi, adabiy-estetik qarashlari hamda san’at va ijodga bo’lgan munosabati yoritiladi. Boburning shaxsiy hayoti, tarixiy voqealar hamda tabiat tasvirlari orqali badiiy ifoda vositalaridan mohirona foydalanishi ochib beriladi. Shuningdek, “Boburnoma”da she’riy elementlar, tashbeh va metaforalarning roli, uslubiy xususiyatlar ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Boburning badiiy tafakkuri va adabiy merosining o’ziga xos jihatlarini yoritishga qaratilgan.

Kalit soʻzlar: Boburnoma, badiiy ijod, tasvir vositalari, adabiy-estetik qarashlar, tarixiy voqealar, tabiat tasviri, badiiy tafakkur, she’riy elementlar, uslub, tashbeh, metafora, adabiy meros.

ISSUES OF ARTISTIC CREATION IN THE BABURNAMA

Annotation his article analyzes the issues of artistic creativity in the work of Zahiriddin Muhammad Babur "Baburnama". The work highlights the author's style of using artistic means of expression, literary and aesthetic views, and attitude to art and creativity. Babur's skillful use of artistic means of expression through personal life, historical events, and images of nature is revealed. The role of poetic elements, allegories, and metaphors in "Baburnama", as well as stylistic features, are also analyzed. The results of the research are aimed at highlighting the specific aspects of Babur's artistic thought and literary heritage.

Key words: Baburnama, artistic creation, means of expression, literary and aesthetic views, historical events, depiction of nature, artistic thought, poetic elements, style, allegory, metaphor, literary heritage.

KIRISH

Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk davlat arbobi, sarkarda, shoir va tarixnavis sifatida jahon tamadduni hamda oʻzbek adabiyotida muhim oʻrin egallagan shaxsdir. Uning “Boburnoma” asari nafaqat tarixiy manba, balki badiiy jihatdan mukammal yozilgan nodir adabiy yodgorliklardan biridir. Ushbu asarda Bobur oʻz davrining siyosiy, harbiy, ijtimoiy va madaniy hayotini mahorat bilan yoritib bergan boʻlsa-da, unda badiiy ijodga oid masalalar ham alohida oʻrin tutadi.

“Boburnoma”dagi badiiy tasvir, voqea-hodisalar bayoni, shaxsiy kuzatishlar hamda Boburning o‘z his-tuyg‘ularini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalashi uning ijodiy salohiyatini namoyon etadi. Asar nafaqat tarixiy dalillarga asoslangan, balki unda Boburning estetik qarashlari, adabiy didi va she’riyatga bo‘lgan munosabati ham ochiq aks etgan. U tabiat tasvirlari, insoniy kechinmalar va tarixiy voqealarni badiiy tahlil etishda o‘ziga xos ifoda vositalaridan mohirona foydalangan.

Shuningdek, “Boburnoma”da adabiy janrlarning uyg‘unligi, tasviriy san’at unsurlari, tashbeh va metaforalarning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Asar muallifi realistik va poetik yondashuvni o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda tarixiy voqealar va shaxsiy hayotiy tajribalarini san’at darajasiga ko‘taradi. Ushbu maqolada “Boburnoma”ning badiiy jihatlari, tasvir vositalari, uslubiy xususiyatlari hamda muallifning adabiy-estetik qarashlari tahlil qilinadi.

Qadimiy va boy tarixga ega xalqimiz jahon tamadduni xazinasini yaratish va boyitishda muhim hissa qo‘shgan. Ajdodlarimiz yaratgan madaniy va ma’rifiy meros nafaqat xalqimiz, balki butun insoniyat taraqqiyoti uchun yorqin mayoq sifatida xizmat qilgan. Ayniqsa, ulug‘ ajdodlarimizning ta’lim va tarbiya sohasida erishgan ilmiy va badiiy merosi bugungi kunda ham katta ahamiyat kasb etadi. Ana shunday buyuk siymolardan biri – ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy sohalarda chuqur iz qoldirgan vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburdir.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI METODOLOGIYASI

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari turli adabiyotshunoslar, tarixchilar va san’atshunoslar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ushbu asar tarixiy manba sifatida ham, badiiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etgani sababli, uni tadqiq qilishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar ko‘plab manbalarda uchraydi.

O‘zbek adabiyotshunoslari orasida Oybek, Vohid Zohidov, Naim Karimov kabi olimlar Boburning adabiy merosi va “Boburnoma”ning badiiy xususiyatlarini tadqiq etib, uning tasviriy san’at usullarini tahlil qilganlar. Jumladan, N. Karimov o‘z asarlarida “Boburnoma”da realistik tasvir yetakchilik qilishini va muallif badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalanganini ta’kidlaydi.

G‘arb olimlaridan Annette Susannah Beveridge va Stephen Dale kabi tadqiqotchilar “Boburnoma”ni tarixiy-biografik yondashuv asosida tahlil qilib, uning adabiy va estetik xususiyatlariga ham e’tibor qaratganlar. Beveridge tarjimalari orqali Boburning badiiy mahorati dunyo ilmiy doiralarida yanada chuqur o‘rganilgan.

Bundan tashqari, Boburning she’riy ijodi va uning lirik qobiliyati haqida ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, “Boburnoma”dagi tabiat tasvirlari va badiiy til uslublari haqida akademik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Bobur nafaqat tarixchi, balki yuksak mahoratga ega badiiy ijodkor ham bo‘lgan.

Ushbu tadqiqotda tarixiy va adabiy tahlil usullari qo‘llanilgan. Asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

Tarixiy-analitik yondashuv – “Boburnoma” asarining yaratilish davri, muallifning hayoti va ijtimoiy muhitni inobatga olgan holda uning badiiy tasvir usullarini o‘rganish.

Adabiy-estetik tahlil – Boburning badiiy ifoda vositalari, tasviriy san’at unsurlari, metafora, tashbeh va boshqa poetik elementlarni tahlil qilish.

Komparativ yondashuv – Boburning ijodi boshqa tarixiy-biografik asarlar bilan solishtirib, uning adabiy xususiyatlarini aniqlash.

Semantik tahlil – “Boburnoma”dagi asosiy g‘oya va ma’nolarni tushunish, Boburning badiiy tasvirlari va til uslublarini o‘rganish.

Tadqiqot davomida “Boburnoma”ning turli nashrlari, tarjimalari va zamonaviy adabiy tadqiqotlardan foydalanilib, Boburning badiiy uslubi va ijodiy yondashuvi keng qamrovda o‘rganiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbek klassik adabiyotining XV asr oxiri va XVI asr boshlarida yashab, ijod etgan mashhur namoyandalaridan biri – Zahiriddin Muhammad Bobur murakkab va qisqa hayoti (1483-1530) davomida bir qator muhim asarlar yaratgan. Biroq, uning barcha ijodi bizgacha to‘liq yetib kelmagan.

Hozirgi kungacha ilmiy xazina tarkibiga qo‘shilgan Bobur asarlari orasida to‘liq bo‘lmagan bir devoni, islom dini asoslarini bayon etuvchi “Mubayyin” nomli she’riy risola, tasavvufga oid kichik hajmdagi “Volidiya” asarining nazmiy tarjimasi, Bobur tomonidan yaratilgan va “Xatti Boburiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan alifbo jadvali hamda tarixiy va adabiy jihatdan muhim bo‘lgan “Boburnoma” asari mavjud.

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat yirik shoir va yozuvchi, balki keng bilim doirasiga ega, davlat arbobi va mohir sarkarda edi. Uning ijodiy merosida o‘zbek nasrining rivojida muhim bosqich sifatida tanilgan “Boburnoma” alohida o‘rin tutadi. Ushbu asar XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonning tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, flora va faunasi, xalqining hayot tarzi va tiliga oid qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan. Shuningdek, Boburning ta’lim va tarbiyaga oid qarashlari ham mazkur asarda aks etgan.

Boburning shaxsiyati o‘zi ko‘p qirrali bo‘lib, uning hayoti va faoliyati bugungi kunda muhim o‘rnak sifatida xizmat qilmoqda. Bobur umr bo‘yi bobosi Amir Temur saltanatini qayta tiklashni maqsad qilib, o‘zining ko‘plab shaxsiy istak va ehtiyojlaridan voz kechgan holda shu yo‘lda astoydil harakat qilgan. Eng yaqin qarindoshlarining fitnalari va xiyonatlarini kechirgani, dushmanlari bilan sulhga borishga tayyorligi, hatto o‘zining suyuqli egachisi Xonzodabegimni Shayboniyxon bilan nikohlashga rozi bo‘lgani Boburning davlat manfaatlarini yuqori qo‘yganidan dalolatdir. U hukmronligi davomida turli millat va dinga mansub xalqlar o‘rtasida diniy va ijtimoiy ziddiyatlarni ahillik va o‘zaro tushunish bilan hal qilishga intilib, bag‘rikenglikka asoslangan siyosat olib borgan.[2]

Amerikalik tadqiqotchi Berk Boburning davlat boshqaruvidagi xizmatlari va shaxsiy fazilatlarini qisqacha, ammo aniq ifodalab, Boburning hukmdorlik usuli haqida shunday yozadi: “Boburshohga ko‘ra, fotihlik va hukmdorlikda yuz ming usul qo‘llanilishi mumkin, lekin bosib olingan yerlarni talon-taroj qilishga aslo yo‘l qo‘ymasdi”. Bobur o‘z asarida “Men bor haqiqatni yozdim”, deb ta’kidlaydi va omadsizlikka olib kelgan xatolarini ham yashirmaydi.

Bobur o‘zining “Vaqoe” nomli asarida turli o‘lkalarning tabiati, tog‘lari va daryolari, xalqlari, ularning tarixi, etnografiyasi, tili, adabiyoti, hayot tarzi va dunyoqarashi haqida juda keng ma’lumotlar to‘plagan. Shuningdek, u o‘sha hududlardagi o‘simlik va hayvonot dunyosi kabi ko‘plab sohalarga oid ma’lumotlarni bayon etgan bo‘lib, bu bilimlarning aksariyati bugungi kunda ham ilmiy ahamiyatini saqlab qolmoqda.[3]

Filologiya nuqtayi nazaridan olib qaraganda, Bobur o‘z memuarida tilshunoslik bilan bog‘liq muhim kuzatishlarni yozib qoldirgan. Masalan, u o‘z asarida turli so‘z va atamalar kelib chiqishiga oid farazlarni keltirgan. Navoiy haqida esa juda qisqa, ammo mazmun jihatidan nihoyatda qimmatli ma’lumotlarni taqdim etgan. Boburning “turk tilida she’r aytgan hech kim undan ko‘proq va chiroyli yozmagan” degan bahosi bugungi kunga kelib ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Buyuk shoir va davlat arbobi sifatida Bobur bu asarni o‘z hayotining tarixiy yodgorligi hamda kelajak avlodlar uchun nasihat sifatida yozgan. Shu bilan birga, asar tarixiy hodisalarga baho berish, ularning sabab va oqibatlarini tushunish nuqtayi nazaridan ham tengsiz ahamiyatga ega. Asar yakunida u quyidagi baytlarni yozadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum.
Har kim bu “Vaqoe”ni o‘qur,
Bilgaykim, Ne ranju ne mehnatu Ne g‘animlar ko‘rdum.

Mumtoz adabiyot namunalarining ta’siri faqat o‘z davriga emas, balki kelajak avlodlarga ham yetib boradi. Biroq, bu kabi asarlar doimo keng kitobxonlar auditoriyasini tezda topavermaydi. Ayniqsa, boshqa tillarga tarjima qilinganda asar matnidagi dard va ma’noni to‘liq anglamaslik, shoirning ijodini to‘laqonli tushunish imkoniyatini pasaytirishi mumkin. Ko‘plab hollarda noto‘g‘ri tarjimalar tufayli Boburning ichki kechinmalari yetarlicha aks etmaydi. Masalan, u quyidagi g‘azalida chuqur iztirobini bayon qilgan:

Kim ko‘ribdur, ey ko‘ngul, aqli jahondin yaxshilig‘,
Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma andin yaxshilig‘.

Ko‘pgina tarjimalarda ushbu misralar “jahon ahlidan yaxshilik kutish behuda” degan soddalashtirilgan shaklda berilgan. Aslida esa, ushbu baytning chuqur ma’nosi “agar jahonda undan yaxshi odam bo‘lmasa ham, hattoki o‘sha kishidan ham yaxshilik

kutish kerak emas” degan fikrni bildiradi. Bu esa Boburning iztirobini to‘liqroq anglash imkonini beradi.

Bobur o‘zbek adabiyotida ruboiy janrining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan ijodkordir. Uning devonida ikki yuzga yaqin ruboiy o‘rin olgan bo‘lib, ularning bir qismi an‘anaviy ravishda yor vasfiga bag‘ishlangan, boshqalari esa kundalik hayot voqealaridan ilhomlangan. Biroq, barchasida Boburning so‘z mahorati, badiiy san‘atlari va poetik jozibasi yaqqol namoyon bo‘ladi:

Bobur, necha bu dahr meni zor aylar,
Sabrimni kamu g‘amimni bisyor aylar,
To dahrdurur, budur aning rasmikim,
Ayrib kishini azizidin, hor aylar.

Boburning uslubida so‘z tanlash va uni o‘rinli qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi. U o‘z asarlarida so‘z va iboralarni takrorlamaslikka harakat qiladi. Masalan, “ko‘p” so‘zining turli sinonimlari sifatida besh, behad, bisyor, bebadal, bepoyon, vafir, ziyod, mabzul, mufrid, pur, cho‘x, g‘alaba va boshqa ko‘plab shakllardan foydalanadi. Bu esa uning til boyligi va badiiy mahoratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan bu kabi so‘z va iboralar xalqimizning bebaho mulkidir. Bugungi kunda lug‘at tarkibiga qayta kirib kelayotgan ko‘plab tarixiy so‘z va iboralar Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi buyuk allomalarimizning asarlarida nozik did bilan ishlatilgan va mumtoz adabiyotimizning shon-shuhratini oshirgan.[4]

Garchi ba’zi qadimiy so‘zlar “eskirgan” deb hisoblansa ham, ularning ko‘pchiligi hanuz hayotiylikni saqlab qolgan. Aksincha, ular yangi ma’nolar kasb etib, zamonaviy tilimizda qayta jonlanmoqda. Shuning uchun ham xalqimizni ularni tushunish darajasiga yetkazish, ularning izoh va sharhlarini taqdim etish muhimdir.

Boburning ma’noga boy g‘azallari hamda “Vaqoe” singari oliy darajadagi asarlarini xorijiy tillarga mukammal tarjima qilish uchun, avvalo, ularni chuqur tushunish zarur. Hali ham chet ellik tarjimonlar ushbu asarlarni asl ruhini to‘liq anglamasdan, so‘zma-so‘z tarjima qilishga urinishmoqda. Shu sababli, Bobur ijodining jahon miqyosida to‘liq va haqqoniy tanilishi uchun uning asarlarini har tomonlama chuqur tahlil qilish hamda sifatli tarjimalar yaratish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari nafaqat tarixiy-biografik yodgorlik, balki badiiy jihatdan yuksak darajadagi adabiy asar sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot doirasida Boburning badiiy tasvir usullari, adabiy-estetik qarashlari va tasviriy san‘at elementlaridan foydalanish uslubi tahlil qilindi.

1. Boburning badiiy tasvir uslubi[5]

“Boburnoma” asarida Bobur voqea va hodisalarni realistik tasvirlash bilan birga, ularni badiiy obrazlar orqali yanada jonlantirib beradi. Jumladan, tabiat tasvirlarida u tashbeh va metaforalardan keng foydalanadi. Masalan, Hindiston tabiatini tasvirlar

ekan, u daraxtlar, gullar va daryolarni shunchaki tavsiflash bilan cheklanmay, ularga o'ziga xos badiiy ruh bag'ishlaydi. Bu esa asarning adabiy-estetik qimmatini oshiradi.

2. "Boburnoma"da she'riy elementlar va adabiy san'atlar

Bobur o'z asarida she'riyatdan ham faol foydalanadi. U ba'zan tarixiy voqealarni yoritish jarayonida o'zining g'azal va ruboiylaridan parchalar keltiradi, bu esa asarga hissiy boylik bag'ishlaydi. Uning she'rlari nafaqat shaxsiy kechinmalarni aks ettiradi, balki tarixiy hodisalar bilan bog'liq ma'nolarni ham ochib beradi.

Shuningdek, Boburning tasviriy san'at uslublaridan mohirona foydalanishi uning ijodiy tafakkurining o'ziga xosligini namoyish etadi. Asarda ko'p uchraydigan tashbeh, metafora, ta'rifi baland so'zlar (mubolag'a), parallelizm kabi badiiy vositalar uning nafaqat tarixchi, balki san'atkor shaxs sifatida ham o'z o'rniga ega ekanini ko'rsatadi.

3. "Boburnoma"da tarixiy voqealarning badiiy aks ettirilishi

Boburning tarixiy voqealarni yoritish uslubi ham diqqatga sazovordir. U voqealarni shunchaki hujjatlashtirish bilan kifoyalanmay, ularga o'z shaxsiy munosabatini bildiradi va o'z his-tuyg'ularini ham aks ettiradi. Bu esa asarni quruq tarixiy ma'lumotlardan iborat bo'lgan oddiy xronikalardan ajratib turadi. Bobur jang maydonlarini, qahramonlarni va hatto mag'lubiyatlarini ham samimiy va haqqoniy tasvirlaydi. Uning ichki kechinmalari asarni yanada ta'sirchan qiladi.

4. Boburning adabiy-estetik qarashlari

Bobur nafaqat hukmdor, balki iste'dodli shoir va adabiyotshunos ham edi. Uning adabiy-estetik qarashlari "Boburnoma"da yaqqol namoyon bo'ladi. U nafaqat o'z ijodiy faoliyatini tasvirlaydi, balki boshqa shoir va yozuvchilarning ijodiga ham baho beradi. Masalan, u Navoiy va boshqa ijodkorlarni yuksak qadrlaganini ochiq aytadi. Boburning badiiy didi yuqori bo'lib, u she'riyatning ichki falsafasini yaxshi tushungan va o'zining asarlarida bu tajribadan unumli foydalangan.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki:[6]

"Boburnoma" nafaqat tarixiy asar, balki badiiy jihatdan mukammal yozilgan adabiy yodgorlikdir.

Bobur o'z asarida realistik tasvir va badiiy tasvir usullarini uyg'unlashtirgan.

Asarda she'riy elementlar, tasviriy san'at vositalari va adabiy uslublar keng qo'llangan.

Boburning adabiy-estetik qarashlari uning san'at va ijodga bo'lgan yuksak hurmatini aks ettiradi.

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, "Boburnoma" nafaqat tarixiy-biografik manba, balki o'zbek va jahon adabiyotida muhim o'rin egallagan badiiy asar hamdir.

"Boburnoma" qomusiy asar sifatida keng qamrovli ma'lumotlarni taqdim etib, o'sha davr hayotini jonli va sodda tilda tasvirlaydi. Uning ichida xalq maqollari va hikmatli so'zlar keng o'rin olgan bo'lib, adabiyotshunos V. Zohidov ta'kidlaganidek, Bobur bunday iboralarni muvaffaqiyatli tanlab, ularni predmet va muhim ijtimoiy

masalalarga bog'lay olgan. "Boburnoma" faqat tarixiy faktlarni sanash bilan cheklanmasdan, voqealar, jangu jadallar va yurishlarni jonli tilda bayon qilib, o'sha davrni yaqqol tasvirlaydi. Shu jihatdan, asar o'zbek nasrining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi.

Ingliz tarixchisi Elfiniston "Boburnoma"ni tarixiy yodgorlik sifatida yuqori baholab, unda Boburning zamondoshlari qiyofasi, urf-odatlar va intilishlari aniq va yorqin tasvirlanganligini qayd etadi. Bobur asarda O'rta Osiyo, Xuroson va Hindiston geografiyasi, hayvonot va o'simlik dunyosi haqida boy ma'lumotlar keltiradi. Hind shoiri Mulk Roj Anandning "Boburnoma bizning ham merosimizdir" degan so'zlari bu asarning Hindistonda ham qadrli ekanini tasdiqlaydi.[7]

"Boburnoma" XVI asrdayoq fors tiliga tarjima qilinib, sharq mamlakatlariga tarqalgan va fors adabiyoti uchun yangi qadam sifatida e'tirof etilgan. Asar o'zining jonli va sodda uslubi bilan keyingi tarixiy memuarlarning rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bobur yaratgan "Boburnoma" tarixiy yodgorlik sifatida ham, keng qamrovli adabiy manba sifatida ham yuqori baholanib, unda ko'plab tarixiy shaxslar, shoirlar, san'at ahillari, shoh va shahzodalar, amir va beklarning faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kishilik tarixida shaxsiy imkoniyat va iqtidorlari bo'yicha kam uchraydigan siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. Shu ma'noda, Bobur buyuk podshoh, shoir, adabiyotshunos, etnograf va hayvonot hamda o'simliklar olamini chuqur bilgan inson sifatida o'z davrining ko'p qirrali yodgorliklarini yaratgan shaxs sanaladi.[8]

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari nafaqat tarixiy-biografik manba, balki yuksak badiiy qiymatga ega bo'lgan adabiy yodgorlik sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot davomida aniqlanganidek, Bobur o'z asarida realistik tasvir va badiiy ifoda vositalarini mahorat bilan uyg'unlashtirgan. Asarda tarixiy voqealar, tabiat manzaralari, insoniy kechinmalar va shaxsiy hayotiy tajribalar badiiy jihatdan yuksak darajada tasvirlangan.[9]

Boburning badiiy tasvir uslubi uning ijodiy salohiyati va adabiy-estetik qarashlarini yaqqol namoyon qiladi. "Boburnoma"da she'riy elementlar, metafora, tashbeh va tasviriy san'at unsurlarining ko'pligi asarning adabiy qimmatini oshiradi. Bundan tashqari, Bobur faqat o'z hayoti va tarixiy voqealarni yoritish bilan cheklanmay, san'at va ijodga bo'lgan qarashlarini ham bayon etadi. Bu esa uning nafaqat iste'dodli tarixchi, balki yuksak badiiy tafakkur sohibi ekanini ham ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, "Boburnoma"ni o'rganish va uning badiiy jihatlarini tahlil qilish o'zbek va jahon adabiyotshunosligida dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu asar nafaqat o'z davri, balki keyingi asrlardagi adabiyot va madaniyat taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli, Boburning adabiy merosini yanada chuqur tadqiq etish, uning badiiy uslublarini kengroq o'rganish hamda

boshqa adabiy yodgorliklar bilan solishtirish muhim ilmiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.[10]

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Boburnoma" nafaqat bebaho tarixiy hujjat, balki favqulotda yetakchi, shoir va alloma Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, tafakkuri va qadriyatlariga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan mohir adabiyot asaridir. Uning o'zi hukmronlik qilgan mamlakatlarning geografiyasi, jamiyati, madaniyati va kundalik hayotini hujjatlashtirishga bo'lgan sadoqati uning chuqur mas'uliyat hissini, bilim va haqiqatga bo'lgan hurmatini namoyon etadi. Bobur "Boburnoma" orqali bag'rikenglik, birdamlik va axloqiy boshqaruvga nisbatan ilg'or qarashlarini namoyon etadi, bu esa uni o'z davrida ham, kelajak avlodlar uchun ham nodir va hurmatli shaxsga aylantiradi. Uning she'riy ifoda, madaniy tushuncha va tarixiy tafsilotlarni uyg'unlashtira olishi "Boburnoma"ni o'zbek tili va madaniyatining boyligini namoyish etuvchi, butun dunyo o'quvchilarini adolat, matonat va insonparvarlik kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan ilhomlantiradigan abadiy manbaga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
2. Ahmedov Bo'riboy. O'zbekiston tarixi manbalari. T.:"O'qituvchi".1991.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent."O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
4. Avloniy A.Toshkent tongi . T.. 1979. 373-bet
5. Hoshimov K.va b. Pedagogika tarixi.Toshkent, "O'zbekiston", 2006.
6. V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnoma. -T.:1960;
7. Azimdjanova S. Indiyский divan Babura. T.: Fan, 1966.
8. X.Nazarova."Boburnoma" tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. — T.: 1980;
9. Stebleva I.V. Semantika gazeley Babura. — M.: 1983.
10. H.Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983;